
NPUU LMS tizimida “O‘qituvchi profili”

YO‘RIQNOMASI

1. LMS.NPUU.UZ LMS TIZIMINING PROFESSOR-O‘QITUVCHI PROFIL YO‘RIQNOMASI

Tizimdan foydalanish uchun **lms.npuu.uz** havolasiga o‘tish kerak. Tizimga kirish uchun dastlab ochilgan sahifadagi tegishli maydonlarga sizga berilgan login va parolni (HEMIS ID bu login, HEMIS IDning oxirgi oltita raqami bu parol) kiritish hamda “Kirish” (Войти) tugmasini bosish lozim.

Tizimga kirish



1. Bosh sahifa

Tizimning chap qismida navigatsiya pan eli joylashgan bo‘lib, biror modulga kirish uchun modulga tegishli nomni tanlash kerak bo‘ladi. Quyida navigatsiya paneli va modullar vazifasi yoritiladi.



1. Yuqori o‘ng burchak paneli (Profil va Sozlamalar)

Tizim sozlamalari va foydalanuvchi profilini boshqarish tugmalari:

▪ Tizimning rasmiy botiga yoki qo‘llab-quvvatlash Support xizmatiga ulanish.

▪ Texnik yordam

▪ So‘rovnomalar

▪ Bildirishnomalar (ogohlantirishlar, yangiliklar yoki vazifalar muddati haqida xabarlar).

▪ Tizim ishlash tilini o‘zgartirish UZ

▪ Tungi rejimda ishlash tugmasi.

▪ Foydalanuvchi profili, uning ismi-sharifi va roli. B


Ustiga bosilganda shaxsiy profil sozlamalari, parolni o‘zgartirish va tizimdan chiqish (Log out) tugmalari ochiladi.

1.1. Tizimning rasmiy botiga yoki qo‘llab-quvvatlash xizmati.

Tizim savollar yoki muammoli vaziyatlar yuzaga kelgan holda qo‘llab quvvatlash xizmatiga murojaat qilishni ta’minlaydi. Telegram belgisi bosilishi bilan tizim sizni maxsus botga yo‘naltiradi.


1.2. Yordam markazi.

Tizimda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda qo‘l keluvchi menyu. Menyu tarkibida foydalanuvchi qoldirgan murojaatlar va ularning holati aks etadi.




Menyu tarkibi quyidagi qismlardan iborat:

- Yangi murojaat tugmasi. Foydalanuvchi ushbu tugma orqali murojaat yaratadi va mas’ul bo‘limga yuboradi(1);
- Yuborilgan murojaatlar holati (2);




-
- Murojaat mavzusi birinchi maydonga kiritiladi (1);
- Murojaat qabul qiluvchi mas’ul bo‘lim ro‘yxatdan tanlanadi (2);
- Murojaat matni va mazmuni qisqacha yoziladi (3);
- Xatolik mavjud bo‘lsa “Bekor qilish” tanlanadi (4);
- Barcha ma’lumotlar kiritilganiga ishonch hosil qilingach “Yuborish” tugmasi bosiladi (5).

Murojaat yuborilganidan so‘ng maydon markazida murojaat nomi, mazmuni qabul qiluvchi mas’ul, yuborilgan vaqt va sana ma’lumotlari namoyon bo‘ladi. Murojaatni ayni shu maydonning o‘ng qismidagi tugmalar orqali tahrirlashingiz yoki o‘chirishingiz mumkin.




2.3. So‘rovnoma.

Usbu tugma lozim bo‘lgan taqdirda talablar orasida so‘rovnoma o‘tkazish imkonini beradi. Tugma bosilishi bilan quyidagi oyna ochiladi. Markazda joriy so‘rovnoma holati aks etadi. Shuningdek, biror vaqt davrida “O‘tgan” va “Joriy” so‘rovnomalar soni ma’lumotlari namoyon bo‘lib turadi.




2.4. Bildirishnomalar

Bildirishnomalar o‘qituvchining platformadagi faolligini oshirish, muhim muddatlarni o‘tkazib yubormaslik hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Har bir yangi bildirishnoma kelganida qo‘ng‘iroqcha yuqorisida yashil doiracha belgisi paydo bo‘ladi.




2.5. Tizim ishlash tilini o‘zgartirish


Tizim 3 ta tilda faoliyat olib borish imkonini beradi. Tizim tilini o‘zgartirish uchun “Globus” ikonkasi bilan belgilangan tugmani bosish va kerakli tilni tanlash yetarli.




Yuqoridagi rasmning belgilangan qismida xabarlar ro‘yxati aks etadi.

2.6. Tungi rejimda ishlash tugmasi.

LMS tizimi foydalanuvchi uchun qulayliklardan biri “Tungi rejim” holati. Ko‘z nurini himoyalash uchun tugma bosiladi va quyidagi holat faollashadi va tugma  ko‘rinishdan  keyingi ko‘rinishga o‘tadi. Ikkinchi tugma yana kunduzgi holatga o‘tishni ta’minlaydi.



2 . Chap yonbosh menyu (Navigatsiya paneli)



Bu panel tizimning asosiy bo‘limlariga o‘tish uchun xizmat qiladi:

- **Bosh sahifa:** Hozirgi ko‘rinib turgan asosiy dashboard oynasi. O‘qituvchi faoliyatining umumiy statistikasi jamlangan joy.

▪**Dars jadvali:** O‘qituvchining haftalik yoki kunlik fanlari, dars soatlari, guruh, dars vaqti, bino va auditoriya raqami ko‘rsatiladigan bo‘limga o‘tish.

▪**Mening fanlarim:** Biriktirilgan fanlar ro‘yxati, dasturlari va sillabuslar bilan ishlash bo‘limi.

▪**Davomat:** Talabalarning darsga qatnashishini belgilash (yo‘qlama qilish) va davomat hisobotlarini ko‘rish paneli.

▪**Savollar to‘plami:** testlar oraliq nazoratlar test shaklida foydalanish mumkin savollar bazasini yaratish va boshqarish.


▪**Ilmiy-uslubiy ishlar:** O‘qituvchi tomonidan nashr etilgan uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar, maqola va tezislar, patent va boshqa ilmiy yutuqlarni tizimga kiritish bo‘limi.


▪**Ilmiy faoliyat:** O‘qituvchi ilmiy rahbarlik faoliyati bo‘limi hisoblanib, u rahbarlik qilayotgan talabalarning BMI, magistrlik dissertatsiyasi mavzulari haqidagi ma’lumotlarni jamlaydi.

▪**Ma’lumot:** O‘qituvchi haqidagi shaxsiy, aloqa manbaalari, ish faoliyati va o‘qituvchining diplom hujjatlar bo‘limi.

2.1. Bosh sahifa ma’lumotlari


Tizimning bosh sahifasi o‘qituvchi profilidagi barcha ma’lumotlar monitoringi namoyon bo‘ladigan qism bo‘lib, akademik yil va semestr tanlash (1), talabalar, fanlar, davomat (2), o‘zlashtirish statistikasi (3) va yaqin muddatlar (4) qismlardan iborat.



1. Akademik yil va semestrni almashtirish filtri. 

Kerakli semestr tanlansa, dashboarddagi barcha ma’lumotlar o‘sha davrga moslab yangilanadi.
2. O‘qituvchi talabalar soni, guruhlar, fanlar, davomat monitoringi, haftalik darslar, yaqin imtihon ma’lumot berib turadi.
3. O‘zlashtirish statistikasi: oylar kesimida. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini foizlarda dinamik grafik ko‘rinishida aks ettiradi.
4. Yaqin imtihon va vazifalar topshirish muddatlari haqidagi ma’lumotlar namoyon bo‘ladi.

2.2.Dars jadvali menyusi




1. Fan turlarini ranglar orqali ajratish. Fan mashg‘ulotlari turi vizual qulaylik yaratish maqsadida turli ranglarda ko‘rsatiladi. Bu rangli belgilashlar o‘qituvchiga mashg‘ulot turini tez va oson aniqlash imkonini beradi. Dars jadvali oynasi o‘qituvchining barcha fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarini yagona interfeysda ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.
2. Jadvalda ko‘rsatiladigan umumiy ma’lumotlar;
3. Jadvalni kun, hafta yoki to‘liq bir oy ko‘rinishiga o‘tkazish;
4. Yuqorida hafta aktiv bo‘lganligi sababli joriy hafta qaysi sanada boshlanmishi va tugashi aks etadi;
5. Joriy kunnni faol qilib ko‘rsatish. Jadvalda ham joriy boshqa rang bilan ajralib turadi;
6. Semestr davomidagi muddatlarni ko‘rish uchun orqaga va oldinga o‘tkazish tugmalari;
7. Kunlik dars mashg‘uloti vaqtlari;
8. Kunlik fan nomi; vaqti, yo‘nalish va guruh aks etib turadi.

Izoh: Ushbu bo‘lim orqali o‘qituvchi o‘ziga biriktirilgan barcha fanlar, guruhlar, bino va auditoriya, dars vaqti kesimida darslarini qulay tarzda kuzatishi mumkin.

2.3. Mening fanlarim menyusi

Mazkur modul orqali professor-o‘qituvchilar o‘z fanlarini to‘liq nazorat qiladilar.



Ushbu oyna quyidagi qismlardan tashkil topgan:


1. Fanlarni o‘quv yili va semestrlar bo‘yicha filtrlash.
2. Oynaning markaziy qismida fan kartochkalari joylashgan. Ularda fan haqidagi quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

-Fanning nomi
-Guruh identifikatori (ID). U tizim tomonidan ushbu kartochkani aniqlash (identifikatsiya qilish) uchun ishlatiladi.
-Potok. Ushbu fanga biriktirilgan akademik guruh. Agar guruhlar soni bittadan ko‘p bo‘lsa (akademik potok), barcha guruhlar ko‘rsatiladi. Agar ushbu fan tanlov fani bo‘lib, unda har xil guruh talabalari tahsil olayotgan bo‘lsa, guruh maydoni bo‘sh qoladi.
-Fanga ajratilgan kredit miqdori.
-Fan kodi.

3. Fan mashg‘ulotlari turi vizual qulaylik yaratish maqsadida turli ranglarda ko‘rsatiladi. Maruza, amaliyot, seminar, laboratoriya dars turlari alohida rang bilan belgilanadi.

2.3.1. Fanning ichki boshqaruv oynasi


Biror fan tanlanganda fanning ichki oynasi ochiladi. Bu oyna quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:



1. Chapga yo‘nalish strelkasi foydalanuvchiga “Mening fanlarim” asosiy oynasiga qaytish imkonini beradi.

2. Fan nomi, fan va unga biriktirilgan guruh, mashg‘ulot turi, o‘quv yili va semestr haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.


3. Mashg‘ulot mavzularini taqvim rejaga muvofiq yaratish tugmasi.




4. Oynadagi “Qo‘shish” tugmasi fan uchun kontent qo‘sish imkonini beradi. uning soatlari, mavzulari, o‘tiladigan guruhlar, sana va vaqt, PDF fayl ko‘rinishida rejani yuklab olish va qayta tiklash tugmalari mavjud.

Kalendar yaratish


Agar reja yaratilmagan bo‘lsa uni yaratishning 2 usuli mavjud. O‘qituvchi “Bo‘sh taqvim rejani yaratish” buyrug‘ini tanlab “Qo‘llash” tugmasini bosadi. Shundan so‘ng semestr haftasiga mos mavzular maydoni hosil bo‘ladi.



Har bir mavzu dars jadvaliga integratsiya qilingan holda yaratilgani sabab mavzu nomi ostida mashg‘ulot turi, vaqti va statusi ko‘rinib turadi. Oynaning o‘ng qismida 2 ta tugma mavjud:




1. Mavzuni tahrirlash 




Tugma bosilgach yuqoridagi oyna ochiladi. Markazdagi maydonga mavzu kiritib, “Saqlash” tugmasi, ba’zi hollarda “Bekor qilish” imkoniyati ham mavjud.

2. Resurslar  . Tizimning bu qismi o‘qituvchi uchun juda muhim hisoblanib, taqvimiy rejadagi har bir mavzu uchun turli material va vazifalar biriktirish imkonini beradi.



3. Davomat  . Talabalar davomati nazorati va monitoringini olib boruvchi modul. Talaba darsda ishtiroki belgilanadi va saqlab boriladi.




Taqvim-reja mavzulari uchun resurslar biriktirish


Resurslar tugmasi orqali fanning sillabusi, umumiy adabiyotlar ro‘yxati yoki nazorat savollarini yuklash mumkin. Materiallar fayl, havola, video, matn, rasm turlarda qabul qiladi.

Mavzu uchun fayl biriktirish


Tizimda har bir mavzu uchun kontent alohida yaratiladi. Mashg‘ulotga fayl biriktirish uchun o‘ng tomondagi “Qo‘shish” tugmasi bosiladi.



Mavzu uchun biror resurs yaratilsa oyna markazidagi maydonda namoyon bo‘ladi;



Mavzu uchun yaratilgan faylni shu maydonning o‘zida yuklash, tahrirlash va o‘chirish imkoniyati mavjud.




Fayl biriktirish oynasining ichki qismi yuqoridagi ko‘rinishga ega:

1. Fayl sarlavhasi yoziladi;
2. Faylga tavsif beriladi;
3. Fayl yuklanadi;
4. Talabalarga ko‘rsatilishi yoki yashirilishi uchun belgi qo‘yiladi;
5. Kamchiliklar bo‘lsa bekor qilish (5) aks holda qo‘shish (6) tugmasi bosiladi.


Mavzuga oid ma’ruza matnlari, taqdimotlar (PPTX), elektron kitoblar yoki uslubiy qo‘llanmalarni (PDF, Word, Excel va boshqalar) tizimga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuklash uchun xizmat qiladi.

Mavzu uchun video biriktirish

1. Tizimda har bir mavzu uchun zarur video kontent alohida yaratiladi. Dars mavzusiga video biriktirish uchun o‘ng tomondagi “Qo‘shish” tugmasi bosiladi.




Video qo‘shish buyrug‘ining ichki oynasi quyidagicha tuzilishga ega:



1. Video fayl sarlavhasi yoziladi;
2. Video faylga tavsif beriladi;
3. Video fayl yuklanadi;
4. Talabalarga ko‘rsatilishi yoki yashirilishi uchun belgi qo‘yiladi;
5. Kamchiliklar bo‘lmasa qo‘shish (5) aks holda bekor qilish (6) tugmasi bosiladi.


Mavzuga doir video darsliklar, YouTube yoki boshqa platformalardagi video materiallar havolasini yoki video faylning o‘zini tizimga biriktirish uchun maydonlar to‘ldiriladi.



Tizim biriktirilgan video materiallar resurslar bo‘limining o‘zidan ijro etilishi, tahrirlanishi va o‘chirib tashlash imkonini beradi.


Mavzu uchun matn biriktirish

1. Tizimda har bir mavzu uchun zarur matnli kontent alohida yaratiladi. Dars mavzusiga matn biriktirish uchun o‘ng tomondagi “Qo‘shish” tugmasi bosiladi.



Ochilgan oynadan 


tanlab, qo‘shish tugmasi bosiladi va jarayon davom etadi. Keyingi qadamda quyidagi maydonlarni to‘ldirish zarur.




1. Matn sarlavhasi yoziladi;
2. Matnga tavsif beriladi;
3. Talabalarga ko‘rsatilishi yoki yashirilishi uchun belgi qo‘yiladi;
4. Kamchiliklar bo‘lmasa qo‘shish (4) aks holda bekor qilish (5) tugmasi bosiladi.

Mavzu uchun havola biriktirish

Tizimda har bir mavzu uchun alohida kontent alohida yaratishni talab qiladi. Dars mashg‘ulotga havola biriktirish uchun o‘ng tomondagi “Qo‘shish” tugmasi bosiladi.




Dars mavzusi uchun havola biriktirish oynasi quyidagi qismlardan iborat:



1. Havola sarlavhasi yoziladi;
2. Havolaning URL manzili (linki) yoziladi;
3. Havolaga tavsif beriladi;
4. Talabalarga ko‘rsatilishi yoki yashirilishi uchun belgi qo‘yiladi;

5. Kamchiliklar bo‘lmasa qo‘shish (6) aks holda bekor qilish (5) tugmasi bosiladi.


Barcha maydonlar to‘ldriib “Qo‘shish tugmasi bosilgach” mavzu uchun yaratilgan havola maydon markazida quyidagicha namoyon bo‘ladi:




Yuqoridagi tugmalar havolani ochish, tahrirlash va o‘chirish vazidalarini bajaradi.

Mavzu uchun vazifa biriktirish


Tizimning bu qismi o‘qituvchi uchun juda muhim hisoblanib, taqvimiy rejadagi har bir mavu uchun turli material va vazifalar biriktirish imkonini beradi.



Buning uchun yuqoridagi oynaning mavzu kiritilgan qismining to‘g‘risidagi resurslar tugmasi bosiladi.




Rusurslar oynasidagi ro‘yxatdan “Vazifalar” tanlanb, “Qo‘shish” tugmasi bosiladi va jarayon davom etadi.



Ochilgan oynadagi maydonlar talabalar bajarishi majburiy bo‘lgan mustaqil ishlar, keyslar yoki amaliy topshiriqlarni yaratish va ularga yuborish imkonini beradi. Bu yerda topshiriq sharti yuklanadi va talabalar o‘z javoblarini fayl ko‘rinishida qayta yuklashlari uchun muddat (deadline) belgilanadi.

1. Topshiriq muddati. Bu maydonda ogohlantirish berilgan, ya’ni topshiriqni talaba yuklashi uchun kamida 7 kun vaqt berilishi talab qilinadi.
2. Topshiriq nomi. Vazifaga nom berish maydoni.
3. Topshirish muddati: vazifa topshirishning oxirgi sanasi kiritiladi.
4. Tavsif: o‘qituvchi vazifa bajarish bo‘yicha izoh qoldirishi mumkin.
5. Topshiriq uchun belgilangan maksimal ball kiritish maydoni.
6. Baholash mezonini kiritish maydoni.

7. Baholash mezoni maydonlariga kiritilgan ballar yig‘indisini hisoblovchi maydon;
8. Kiritilgan baholash mezoni uchun ajratilgan ballni kiritish maydoni.




9.  tugmadan baholash mezoni qo‘shishda foydalaniladi. Bir topshiriqda bir nechta mezon kiritish mumkin. Faqat ularga alohida ball beriladi. Ushbu ballar yig‘indisi maksiml ballga ya’ni oraliq nazorat uchun ajratilgan ballga teng bo‘lishi zarur.
10. Talabalarga mavzuni bajarish talablari yoziladi.
11. Qo‘shimcha ma’lumotlar yoziladi.
12. Bajarish bo‘yicha namuna fayl biriktirish maydoni.
13. Talabalar uchun vazifani ko‘rinish yoki yashirin holatda bo‘lishini ta’minlovchi tugma. Bu tugmaning qulayligi shundaki, o‘qituvchi bo‘sh vaqtida vazifalarni tayyorlaydi va oraliq nazorat muddati yaqinlashganda tayyor vazifaga belgi qo‘yib qo‘yadi holos.
14. Kamchilik yoki xatolik bo‘lganida “Bekor qilish” tugmasi tanlanadi.
15. Maydonlar to‘ldirilgach “Qo‘shish” tugmasi bosiladi va yaratilgan vazifa oynada aks etadi.


Vazifa asosan Oraliq nazorat uchun beriladi. Yuborilgan vazifa talabalarga “Bildirishnoma” orqali yetkaziladi.

Vazifa yaratilganidan so‘ng “Mening fanlarim” → “Fan”→ 


tugmasi bosiladi.




Vazifa yuklangandan so‘ng talaba ro‘yxati satrida ustun shaklida katakchalar paydo bo‘ladi.



Talabadan vazifaga javob kelganda katakcha rangi to‘q rangga o‘zgaradi. Baho qo‘yish uchun katakcha ustiga bosiladi.



Natijada quyidagi oyna ochiladi:




Yuqoridagi oyna quyidagi qismlardan iborat:


Baholash:
Vazifa topshirishning oxirgi muddat;
Talaba yuborgan muddat;
Maksimal ball;
Biriktirilgan fayl nomi;
Baholash mezoni: talaba olgan ball va vazifa uchun belgilangan maksimal ball;
Izoh: talaba nima sababli bu ballni olganini o‘qituvchi izohlaydi.
Bekor qilish (agar biror xatolik yuzaga kelsa);
Saqlash (barcha maydonlar to‘ldirilgandan so‘ng saqlanadi).

Mavzu uchun testlar biriktirish

Tizimda test moduli talabalar bilimini butun semestr bo‘yicha nazorat qilish uchun zarur qism hisoblanadi. Test o‘tkazish sanasi test yaratish jarayonida belgilanganligi sababli biror mavzuni tanlash ahamiyatga ega emas va bu yerda joriy nazorat testining vaqti va xossalari belgilanadi, o‘qituvchi profilidagi “Savollar to‘plami” modulida testlar bazasi yaratish talab qilinadi. Tizimda test yaratish uchun o‘ng tomondagi “Qo‘shish” tugmasi bosiladi.



Tizim 2 turdagi standart va shablon asosida yaratish imkonini beradi.




Standart turdagi test yaratish oynasi. Standart turdagi test savollari talabalarga tizim tomonidan taqdim etiladi.

Stardart turdagi testni yaratish uchun:

1. Boshlanish vaqti;
2. Tugallanish vaqti;
3. Vaqt chegarasi;

4. Test turi;
5. Savollar soni;
6. Maksimal ball;
7. 1 ta savol uchun ajratilgan ball
8. Tayyor testni talabaga ko‘rsatish yoki yashirish;
9. Test natijasini talabaga ko‘rsatish yoki yashirish;
10. Testni bekor qilish amali;
11. Testni qo‘shish amali.

Shablon turidagi test yaratish uchun:




1. Test boshlanish vaqti;
2. Test tugallanish vaqti;
3. Vaqt chegarasi;
4. Mavjud testdan nusxa olish (agar avval yaratilgan test mavjud bo‘lsa vaqt tejash maqsadida nusxalab olish mumkin).
5. Test turi;
6. Savollar darajasi;
7. Savollar bloki (testni aniq bir mavzudan yoki fanning biror bo‘limidan tushishini belgilash uchun qo‘llaniladi);
8. Savol uchun ball belgilash;
9. Savolni o‘chirish;
10. Yangi savol qatorini qo‘shish
11. Tayyor testni talabaga ko‘rsatish yoki yashirish;


12. Test natijasini talabaga ko‘rsatish yoki yashirish;
13. Testni bekor qilish amali;
14. Testni qo‘shish amali.

Mavzu uchun uchrashuvlar (videokonferensiya) biriktirish

Uchrashuvlar resursi tizimda masofaviy onlayn darslar tashkil etish qo‘l keladi. Onlayn darsni boshlash uchun ixtiyoriy mavzuni → “resurslar”→ “Uchrashuvlar”→“Qo‘shish” tugmasi bosiladi.



Uchrashuv belgilash oynasi quyidagi qismlardan iborat:




1. Uchrashuv yoki mavzu nomini kiritish maydoni;
2. Uchrashuv sanasi va vaqtini belgilash maydoni;
3. Uchrashuv yoki mavzu uchun tavsif yozish maydoni;


4. Uchrashuvni bekor qilish amali;
5. Uchrashuvni qo‘shish amali.

3.3. Davomat

“Mening fanlarim” modulidagi “davomat” tugmasi orqali o‘qituvchi guruhdagi talabalar davomatini nazorat qilishi davomat monitoringini olib borishi mumkin.



“Davomat” tugmasining ichki tuzilishi quyidagicha:




Faqat kelmagan talabalar belgilanadi. Tizimda barcha talabalar standart holatda darsda "Bor" (+) deb hisoblanadi. O‘qituvchi faqat darsga kelmagan talabalargagina “Yo‘l” (-) qo‘yishi mumkin. Jurnal sarlavhasida joriy yo‘qlama qilinayotgan guruh kodi va dars bo‘lib o‘tgan aniq sanalar ko‘rsatiladi.

Sahifadagi davomatni saqlash 


tugmasi bosilib talabalar davomati shakllantiriladi.

4.DAVOMAT MODULI

Davomat moduli orqali o‘qituvchi har bir dars uchun guruhlar davomatini qayd etish mumkin.




Ushbu bo‘limda guruhdagi talabalarning darsda qatnashganligi bo‘yicha umumiy ma’lumotlar kiritiladi va saqlanadi.



5. SILLABUS GENERATSIYASI MODULI

Sillabus generatsiyasi moduli o‘qituvchilarga semestr davomida o‘tiladigan fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy hujjatlarni yaratish, tahrirlash, saqlash va talabalar uchun taqdim etish imkoniyatini beradi.



Jadvalda ko‘rsatilgan qo‘shish tugmasi orqali o‘qituvchi bu panelda o‘zi o‘tadigan barcha fan sillabusini yaratish imkonini beradi. Sillabus universitet rahbariyati va o‘quv bo‘limi tomonidan tasdiqlangan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi.




Yuqorida ochilgan oynadan davr (1), o‘qituvchining fanlaridan biri (2), ochiluvchi menyudan sillabus tili (3) tanlanadi va bajarilgan amallarni bekor qilish uchun Bekor qilish (4), yaratish uchun esa Yaratish (5) tugmasi bosiladi.

Oynaning o‘quv yili va semestr tanlash qismidan davr tanlash orqali aynan shu davrda muayyan fanlar uchun yaratilgan sillabuslar namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, modul sillabuslarning yangilangan versiyalarini saqlash, ularni semestr davomida tahrirlash hamda talabalar tomonidan ko‘rib chiqilishi va yuklab olinishi uchun ochiq holatda joylashtirish imkoniyatini ta’minlaydi. Bu esa o‘quv jarayonining shaffofligini oshirish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

6. SAVOLLAR TO‘PLAMI MODULI


Savollar banki – o‘qituvchi tomonidan fanlar kesimida tizimga kiritilgan test savollari bazasi bo‘lib, unda turli mavzu va bo‘limlarga oid savollar saqlanadi. Mazkur modul test topshiriqlarini yaratish, saqlash va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Savollar banki o‘qituvchiga savollarni fan, mavzu, murakkablik darajasi va ta’lim tili bo‘yicha guruhlash, tahrirlash va yangilab borish imkoniyatini yaratadi. Natijada testlarni tuzish jarayoni tezlashadi, baholashning xolisligi va shaffofligi ta’minlanadi.






“Savollar banki” sahifasiga o‘tilganda, joriy semestrda o‘qituvchi tomonidan olib borilayotgan barcha fanlar ro‘yxati (1), fan kodi aks (2), fan kredit (3), savollar (4) aks etadi. Har bir fan bo‘yicha kiritilgan savol soni va til kesimida guruhlangan holda ko‘rsatiladi.
Savollar quyidagi ta’lim tillari UZ/RU bo‘yicha alohida tasniflanadi. Biror fandan tets yaratish uchun 

kerakli til belgisi ustiga bosiladi. Navbatda quyidagi oyna ochiladi:



1. Savol qo‘shish;
2. Shablon- import qilish mumkin bo‘lgan fayl namunasi :




Savol turi/Тип вопроса: **multiple-choice** - Ko'p tanlovli savol/Вопрос с множественным выбором, **true-false** - To'g'ri/Noto'g'ri savol/Верный/неверный вопрос, Dars turi/Тип занятия: lecture- Ma'ruza/Лекция, seminar - Seminar/Семинар, practice - Amaliyot/Практика), lab - Laboratoriya/Лаборатория, Qiyinlilig/Сложность: easy - Yengil/Легкий, medium - O'rtacha/Средний, hard - Qiyin/Сложный

Blok raqami/Номер блока	Savol turi/Тип вопроса	Savol/Вопрос	Qiyinlilig/Сложность	Variant 1	Variant 2	Variant 3	Variant 4	To'g'ri javob/Правильный ответ
1	multiple-choice	Marining kasbi nima edi	easy	olma	anor	uzum	hech qanday mev emas	olma to'g'ri
1	multiple-choice	Chol Salamano ko'ppagi bilan nechchi yildan buyon birga yashar edi?	easy	kotiba	muhbir	o'qituvchi	ishlamas edi	o'qituvchi
2	true-false	Amir Temur 1336-yil 9-aprelda tug'ilgan	easy					true


3. Import- tayyordan test faylini tizimga yuklash;
4. Export- tuzilgan testni yuklab olish.
5. Tizimida mavjud bo‘lgan savol turlari:
   - Barchasi;
   - Variantli test;
   - To‘g‘ri/Noto‘g‘ri;
   - Moslashtirish;
   - Bo‘sh joy;
   - Esse;

Joriy nazorat uchun “Variantli test” qo‘shish

Savollar bazasini yaratishda «**+ Savol qo‘shish**» tugmasi bosilganda ochiladigan savol turlari ro‘yxatdan tanlanib, jarayon davom etadi.




Oyna o‘qituvchiga joriy nazorat uchun savol turini tanlash imkonini beradi. **Test (variantli)** - standart test formati. Bitta savol va bir nechta javob variantlari kiritiladi, ulardan faqat bittasi (yoki sozlamaga ko‘ra bir nechtasi) to‘g‘ri javob qilib belgilanadi.



1. Test savolini kiritish maydoni;
2. Savolning qiyinlik darajasini belgilash;
3. Reja raqamini belgilash;
4. Mashg‘ulot turini belgilash;
5. Mavzuni tanlash;
6. Javobni bir yoki bir nechta qilib belgilash tugmasi;
7. Javob variantlari maydoni. Bu yerda to‘g‘ri javob belgilab qo‘yiladi;
8. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
9. Savolni “Saqlash” tugmasi;


Agar testda bir nechta javob to‘g‘ri bo‘lishi kerak bo‘lsa, savol uchun ajratilgan umumiy ball javoblar soniga bo‘linadi. Variantlar yonida kichik maydonlarga to‘g‘ri javob uchun ball kiritiladi.




Joriy nazorat uchun “To‘g‘ri/Noto‘g‘ri” savol qo‘shish

To‘g‘ri/Noto‘g‘ri (True/False) test turi — bu test topshirig‘ining eng sodda va keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchiga ma’lum bir fikr, hukm yoki bayonot taqdim etiladi va u ushbu bayonotning haqiqatga mos kelishini aniqlashi kerak bo‘ladi.

Savollar bazasini yaratishda «**+ Savol qo‘shish**» tugmasi bosilganda ochiladigan savol turlari ro‘yxatdan tanlanib, jarayon davom etadi.



“To‘g‘ri/Noto‘g‘ri” turdagi savol yaratish oynasi quyidagicha tuzilishga ega:




1. Test savolini kiritish maydoni;
2. Savolning murakkablik darajasini belgilash;
3. Reja raqamini belgilash;
4. Mashg‘ulot turini belgilash;
5. Mavzuni tanlash;
6. Javobning “To‘g‘ri” statusini belgilash tugmasi;
7. Javobning “Noto‘g‘ri” statusini belgilash tugmasi;
8. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
9. Savolni “Saqlash” tugmasi;

Joriy nazorat uchun “Moslashtirish” savol qo‘shish

“Moslashtirish” savol turi — LMS tizimida o‘quvchilarning tushunchalar, atamalar, ta’riflar, formulalar, sanalar yoki boshqa o‘zaro bog‘liq ma’lumotlarni to‘g‘ri juftlashtirish ko‘nikmalarini baholash uchun qo‘llaniladi. Ushbu turdagi savolda ikki ustunda berilgan elementlarni bir-biriga mos ravishda bog‘lash talab etiladi.






1. Savol matnini kiritish maydoni;
2. Savolning murakkablik darajasini belgilash;
3. Reja raqamini belgilash;
4. Mashg‘ulot turini belgilash;
5. Mavzuni tanlash;
6. Moslashtiriladigan javobning o‘ng tomoni;
7. Moslashtiriladigan javobning chap tomoni;


8. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
9. Savolni “Saqlash” tugmasi;

Joriy nazorat uchun “Bo‘sh joy” savol qo‘shish

“Bo‘sh joy” savol turi — LMS tizimida o‘quvchilarning bilimini qisqa javob yoki yetishmayotgan so‘z, son, formula yoki iborani to‘ldirish orqali baholash uchun qo‘llaniladigan test savoli turidir. Ushbu turdagi savolda matn ichida bo‘sh qoldirilgan joy bo‘ladi va o‘quvchi unga to‘g‘ri javobni kiritishi kerak.




“Savol qo‘shish” menyusidan “Bo‘sh joy” savol turi talangach quyidagi oyna ochiladi:




1. Savol matnini kiritish maydoni;
2. Savolning murakkablik darajasini belgilash;
3. Reja raqamini belgilash;
4. Mashg‘ulot turini belgilash;
5. Mavzuni tanlash;
6. Izoh: savol kiritilganda bo‘sh maydonda kiritilishi kerak bo‘lgan so‘z yoki jumla “[ ]”;
7. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
8. Savolni “Saqlash” tugmasi;

Joriy nazorat uchun “Esse” savol qo‘shish

“Esse” savol turi — LMS tizimida o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimini tahliliy, mantiqiy va erkin matn ko‘rinishida bayon etish ko‘nikmalarini baholash uchun qo‘llaniladi. Ushbu turdagi savolda o‘quvchi berilgan savol yoki topshiriqqa batafsil yozma javob tayyorlaydi.




“Savol qo‘shish” menyusidan “Esse” savol turi talangach quyidagi oyna ochiladi:




1. Savol matnini kiritish maydoni;
2. Savolning murakkablik darajasini belgilash;
3. Reja raqamini belgilash;
4. Mashg‘ulot turini belgilash;
5. Mavzuni tanlash;
6. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
7. Savolni “Saqlash” tugmasi;

Savol turi bo‘yicha yaratilgach “Savol to‘plami” menyusida savolar ro‘yxati, turi turli ranglarda ko‘rinadi.




Savol ro‘yxati yonida ishlab ko‘rish (1), tahrirlash (2), o‘chirib tashlash (3) tugmalari joylashgan



7. SAVOLLAR

Quyida LMS tizimining “Savollar” (Yakuniy imtihon savollari) oynasi tasvirlangan. Ushbu oyna fanlar bo‘yicha yakuniy imtihon uchun yozma va test savollarini yaratish, ko‘rish va boshqarish uchun xizmat qiladi.



Interfeys qismlari:

1. **Semestr** tanlash. Masalan **2025–2026 2-semestr**. Bu yerda foydalanuvchi qaysi semestr savollarini ko‘rmoqchi yoki yaratmoqchi ekanligini tanlaydi.
Semestr o‘zgartirilganda fanlar ro'yxati yangilanadi, shu semestrga tegishli savollar ko‘rsatiladi, boshqa semestr savollari alohida saqlanadi.


2. Fan qidirish. Banner ostida qidiruv maydoni mavjud. Bu maydon fan nomi fan va kodi bo‘yicha qidiruvni amalga oshiradi.

3. Yozma savollar bo‘limi. Bu ustunda yozma imtihon savollari soni ko‘rsatiladi. Savol yaratish uchun savol tili belgilanadi va 0 UZ 0 RU mana shu tugamalarning keraklisi bosiladi.


4. **Test savollar bo‘limi.** Xuddi yozma savollar kabi ishlaydi. Bu yerda test savollarining soni ko‘rsatiladi. Test yaratish uchun 0 UZ 0 RU tugmalarning keraklisi bosiladi.

Yozma savollar yaratish.

MS tizimida yozma savollarni yaratish jarayoni fan bo'yicha yakuniy imtihonda foydalaniladigan yozma savollar bazasini shakllantirish uchun amalga oshiriladi. Jarayon quyidagi bosqichlardan iborat.




Yozma savol turida 0 UZ tugma bosilishi bilan quyidagi oyna ochiladi:



Bu oyna foydalanuvchiga savollarni birma – bir qo‘shish yoki tayyor shablon bo‘yicha tizimga yuklash imkonini beradi.

Savol qo‘shish jarayoni quyidagicha:




1. Savol matnini kiritish maydoni;
2. Savolning tartibini belgilash;
3. Imtihon turini belgilash;

- Oraliq;
- Oraliq topshirish
- Yakuniy;
- Qayta topshirish;

Izoh: Bu qismda belgilangan nazorat turi uchungina yaratilgan savol taqdim etiladi.

4. Savol turini belgilash: Nazariy yoki amaliy.
5. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
6. Savolni “Saqlash” tugmasi;


Savol “Saqlash” tugmasi bosilishi bilan “Imtihon savollari”→ “Yozma” oynasida savollar ro‘yxati shakllanadi.




Bu oynadan savollarni ko‘rish, tahrirlash va o‘chirish mumkin.

Test yaratish.

“Test savollar” bo‘limi LMS tizimida fanlar bo‘yicha yakuniy nazorat uchun test savollarini yaratish, tahrirlash va boshqarish imkonini beruvchi asosiy sahifalardan biridir. Ushbu oynada foydalanuvchi tanlangan semestr bo‘yicha fanlarga tegishli test savollarini ko‘rishi va ularni boshqarishi mumkin.




Test savollar turida tugma bosilishi bilan quyidagi oyna ochiladi:



Bu oyna foydalanuvchiga testlarni birma – bir qo‘shish yoki tayyor shablon bo‘yicha tizimga yuklash (import) imkonini beradi.

Test qo‘shish jarayoni quyidagicha:



1. Savol matnini kiritish maydoni;
2. Savolning tartibini belgilash;
3. Imtihon turini belgilash;


- Oraliq;

- Oraliq topshirish
- Yakuniy;
- Qayta topshirish;

Izoh: Bu qismda belgilangan nazorat turi uchungina yaratilgan savol taqdim etiladi.


4. Savol darajasini belgilash: yengil, o‘rta, qiyin.
5. Javob variantlari. To‘g‘ri javob variant belgilab qo‘yiladi.
6. Savolda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
7. Savolni “Saqlash” tugmasi;

Savol “Saqlash” tugmasi bosilishi bilan “Imtihon savollari”→ “Test” oynasida savollar ro‘yxati shakllanadi.




Bu oynadan testlarni ko‘rish, tahrilash va o‘chirish mumkin.

8. ILMIY-USLUBIY ISHLAR MODULI



Bu sahifa o‘qituvchilarning ilmiy va uslubiy faoliyatiga oid maqolalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va uslubiy tavsiyalarni tizimga kiritish, saralash hamda hisobotlarni yuritish uchun xizmat qiladi.



1. Maqola nomini kiritish maydoni;
2. Maqola turi ro‘yxatdan tanlanadi;
3. Maqola mavzusi ro‘yxatdan tanlanadi;
4. Jurnal nomini kiritish maydoni;
5. Nashr sanasini kiritish maydoni;
6. Maqola hajmini kiritish maydoni;
7. Sahifalar sonini kiritish maydoni;
8. Hammualliflarni belgilash maydoni. Tizimda barcha professor o‘qituvchilar ro‘yxati ochiladi va tanlash qulayligi mavjud.
9. Tashqi mualliflarni kiritish maydoni. Boshqa tashkilot yoki chet davlat vakillari bilan hamkorlik asosida ilmiy ish qilingan bo‘lsa kiritish imkoni mavjud.
10. Maqola faylini biriktirish maydoni;
11. Maqolani joylashda yoki boshqa biror xaolik yuz berganda bekor qilish;
12. Maqola ma’lumotlarini “Saqlash” tugmasi;

9. MENING ORALIQLARIM MODULI


“Mening oraliqlarim” moduli o‘qituvchiga joriy o‘quv yilida belgilangan oraliq nazoratlar bo‘yicha barcha ma’lumotlarni ko‘rish imkonini beradi.

Ushbu oyna o‘quv yilida oraliq nazoratlar davri faollashtirilganda ishga tushadi va quyidagi ma’lumotlarni aks ettiradi:

- o‘qituvchiga biriktirilgan barcha fanlar bo‘yicha oraliq nazoratlar;
- har bir fan bo‘yicha guruhlar kesimidagi oraliq nazoratlar;
- oraliq nazoratning sanasi, holati va boshqa tegishli ma'lumotlar (tizim sozlamalariga muvofiq).

Agar o‘quv yilida oraliq nazoratlar davri hali faollashtirilmagan yoki o‘qituvchiga oraliq nazorat biriktirilmagan bo‘lsa, ekranda “Sizga biriktirilgan oraliq imtihon oqimi yo‘q” degan xabar ko‘rsatiladi.

Bu modul orqali o‘qituvchi o‘ziga tegishli barcha oraliq nazoratlarni yagona oynada kuzatishi va ular bilan bog‘liq jarayonlarni boshqarishi mumkin.




10. ILMIY FAOLIYAT MODULI

“Ilmiy faoliyat” moduli professor-o‘qituvchilarning ilmiy rahbarlik faoliyatini elektron shaklda boshqarish va nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Mazkur modul orqali o‘qituvchi o‘z rahbarligidagi bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari yoki boshqa ilmiy ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni bir joyda kuzatishi mumkin.

Modul ilmiy ishlar holatini monitoring qilish, talabalarni tezkor izlash hamda semestrlar bo‘yicha ma’lumotlarni saralash imkoniyatini yaratadi.

Modulning asosiy oynasi:



1. Sarlavha qismi
2. Semestr tanlash. Faqat tanlangan davrga tegishli bitiruv ishlarini ko‘rish mumkin.
3. Qidiruv oynasi. Bu maydondan qidiruv natijalari avtomatik ravishda filtrlab ko‘rsatiladi. Bu ko‘plab bitiruv ishlari orasidan kerakli ma’lumotni tez topishga yordam beradi.
4. Bitiruv ishlari ro‘yxati. Sahifaning asosiy qismida rahbarlik qilinayotgan bitiruv ishlari ro‘yxati aks etadi. Agar tanlangan semestrda birorta bitiruv ishi mavjud bo‘lmasa, tizim “Bitiruv ishi topilmadi” xabarni chiqaradi:
Bu tanlangan davrda foydalanuvchiga biriktirilgan ilmiy ish mavjud emasligini bildiradi.

Modulning asosiy imkoniyatlari:


- ilmiy rahbarlik qilinayotgan bitiruv ishlarini ko‘rish;
- semestrlar bo‘yicha ma’lumotlarni filtrlash;
- talabalarni tezkor qidirish;
- mavzu bo‘yicha izlash;
- ilmiy ishlar holatini kuzatish;
- bitiruv ishlarini elektron nazorat qilish;
- rahbarlik yuklamasini monitoring qilish;
- ilmiy faoliyatni tizimli boshqarish.

11. YAKUNIY MODULI

Yakuniy moduli professor-o‘qituvchilarga fan bo‘yicha yakuniy nazorat jarayonlarini boshqarish, baholash va natijalarni rasmiylashtirish imkonini beruvchi modul hisoblanadi. Ushbu modul orqali yakuniy nazorat uchun ajratilgan guruhlar, talabalar ro‘yxati, baholash natijalari hamda yakuniy reytinglar elektron shaklda yuritiladi.

Modul baholash jarayonining shaffofligini ta’minlaydi, inson omili ta’sirini kamaytiradi hamda yakuniy natijalarni tezkor shakllantirish imkonini yaratadi.

Modulning asosiy oynasi



Yakuniy nazorat moduli nazorat kuni va vaqti belgilanganidan so‘ng faollashadi.

Yakuniy moduliga kirilganda foydalanuvchi quyidagi bo‘limlardan foydalanishi mumkin:

- o‘quv yili va semestrni tanlash;
- fanlar ro‘yxati;
- yakuniy nazoratga tegishli guruhlar;

- talabalar ro‘yxati;
- baholarni kiritish va tahrirlash;
- yakuniy natijalarni ko‘rish;
- qidiruv va filtrlash vositalari.

Modulning asosiy imkoniyatlari:


- yakuniy nazorat jarayonlarini boshqarish;
- fan va guruhlar bo‘yicha ma’lumotlarni ko‘rish;
- talabalar ro‘yxatini shakllantirish;
- yakuniy baholarni elektron tarzda kiritish;
- baholarni tahrirlash (ruxsat etilgan muddat ichida);
- yakuniy reytinglarni avtomatik hisoblash;
- baholash natijalarini monitoring qilish;
- hisobotlarni shakllantirish.

12. MA’LUMOT

Shaxsiy ma’lumotlar moduli professor-o‘qituvchining tizimdagi shaxsiy profilini boshqarish uchun mo‘ljallangan. Ushbu modul orqali foydalanuvchi o‘ziga tegishli shaxsiy, xizmat va aloqa ma’lumotlarini ko‘rishi, ayrim ma’lumotlarni yangilashi hamda tizimdagi profilini boshqarishi mumkin.

Mazkur modul foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini yagona elektron bazada saqlash, ularning dolzarbligini ta’minlash hamda universitetning boshqa modullari bilan integratsiyalashgan holda foydalanish imkonini beradi.

Modulning asosiy oynasi



1. Sarlavha qismi. Bu qismda professor o‘qituvchining F.I.Sh, lavozimi va kfedrasi, ma’lumotlarni **.docx** formatda yuklab olish 

tugmasi joylashgan.


2. Shaxsiy ma’lumotlar:
- tug’ilgan sana;
- jinsi;
- oilaviy holati;
-millati.

3. Aloqa ma’lumotlari:
- e-mail
- shaxsiy telefon raqami;
- uy raqami
- web sayti
4. Ish faoliyati:
- Boshqarma yoki fakuletga oidligi;
- Biriktirilgan kafedra nomi;
- Lavozimi;
- Ish faoliyat shtati;
5. Professor – o‘qituvchining diplom ma’lumotlari.
Izoh: Ma’lumot modulida biror xatolik yoki kamchilik mavjud bo‘lsa o‘qituvchi uni shaxsiy profil sozlamalaridan tahrirlash imkoniyatiga ega.

13.TALABA KO‘CHIRISH

Talaba ko‘chirish moduli professor - o‘qituvchilarga o‘zlariga biriktirilgan akademik guruhlar tarkibini boshqarish imkonini beruvchi modul hisoblanadi. Ushbu modul orqali o‘qituvchi guruh tarkibini ko‘rishi, talabalarni bir guruhdan boshqa guruhga ko‘chirish yoki guruh tarkibidan chiqarish jarayonlarini amalga oshirishi mumkin. Modul o‘quv jarayonida talabalar tarkibidagi o‘zgarishlarni tezkor va elektron tarzda boshqarish, guruhlarni tartibli yuritish hamda ma'lumotlarning doimiy yangilanib borishini ta’minlaydi.

Modulning asosiy oynasi



Talaba ko‘chirish moduliga kirilganda foydalanuvchi quyidagi elementlarni ko‘radi:

1. sarlavha;
2. semestr tanlash oynasi;
3. talabani qidiruv maydoni;
4. filtrlash (Filter) tugmasi;
5. talabalarni boshqarish oynasi.

Agar tanlangan semestrda foydalanuvchiga biriktirilgan guruh mavjud bo‘lmasa, tizim quyidagi xabarni chiqaradi: